

## SHARIAT-ISLOM DINIY HUQUQ QONUN-QOIDALARINING MAJMU

### SHARIAT IS SET OF RULES OF ISLAMIC RELIGIOUS LAW

### ШАРИАТ – СВОД НОРМ ИСЛАМСКОГО РЕЛИГИОЗНОГО ПРАВА

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali

“TTKT” fakulteti 23-06-guruh talabasi

Ravshanova Ra’no Rashidovna.

Elektron manzil: [ravshanovano742@gmail.com](mailto:ravshanovano742@gmail.com)

#### Anotatsiya:

Ushbu maqolada islomning diniy huquq,qonun qoidalari, norma va tartiblar majmuasi sifatida shariat Sharqdagi bir qancha mamlakatlarda davlat uchun dunyoga kelishidan to o’limigacha yurish turishini belgilovchi qoidalar to’plami sifatida qaralgan.

**Kalit so’zlar:** Qur’on, shariat, islom, din, qadriyat, musulmon, Sunna.

**Shariat** (arab – “to’g’ri yo’l” islomda qonunchilik ma’nosida ishlatiladi) - Islom huquq tizimi. Sharhida sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me’yorlar va amaliy diniy talablar hamda qonun turlari berilgan.Musulmon kishi uchun dunyoga kelishidan to o’limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to’plami sifatida qaralgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur’on asosida olib borilgan. Keyinroq musulmonlarning barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug’ilgan. Islom xuquqshunoslari bir necha asr mobaynida Shariat me’yorlarini ishlab chiqqanlar. Qur’on,sunnat,ijmo va qiyos asos qilib olingan. Shariat huquqiy tizim sifatida 11-12-asrlarda tugal shakllangan. Bunda yozma va og’zaki diniy, madaniy, axloqiy, huquqiy, mahalliy urf-odat va an’analarning ta’siri bo’lgan.

Islomda Sunniylik va shialikdagi Shariat tizimlari o’rtasida muayyan tafovutlar bor. Sunniylikda Hanafiylik, Molikiylik, Shofe’iylik, Hanbaliylik, Shialikda esa Ja’fariylik mazhabining o’ziga xos huquqiy tartiblari mavjud. Shariat xususiy mulkni Alloh tomonidan belgilangan, doimiy va o’zgarmas deb hisoblaydi. Sharhida barcha xatti-harakatlar,dastlab 2 tur: harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik



Shariat shakllanib tugallangan davrda 5 toifaga bo'lingan. Bular: farz yoki vojib - bajarilishi muhim va majburiy hisoblangan xatti-harakatlar (Alloh yagonaligiga ishonish, namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, Haj ziyoratini ado etish kabilar); sunnat yoki mustahab - majburiy emas, lekin ma'qul, qilish afzal deb hisoblangan normalar (misol uchun: g'usldan oldingi tahorat,); muboh yoki joiz - rag'batlantirilmaydigan va uni bajarmaslik gunoh hisoblanmaydigan ixtiyoriy xatti-harakatlar (misol uchun: bitim, savdo shartnomalari tuzish, safar qilish, yemoq, ichmoq va boshqalar); makruh - jazoga tortilmaydigan, ammo noma'qul hisoblanadigan xatti-harakatlar (misol uchun: so'kinish, kattalarning hurmatini o'rninga qo'ymaslik, suvni ifloslantirish, hayvonlarga haddan ortiq yuk ortish); harom - qat'iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar (misol uchun: cho'chqa go'shti iste'mol qilish, aroq ichish, odam o'ldirish va boshqalar). Shariat jinoyat uchun qat'iy, lekin odilona choralarni belgilab bergan.<sup>1</sup>

Shariat ilmlari islom dini va unga bog'liq bo'lgan masalalarni qamrab olgan. Bular tajvid (qiroat), tafsir, hadis, fiqh ilmlari, fiqhning far'iy (juz'iy) qismlari hamda kalom ilmidan iboratdir. Shariat ilmlari qatoriga arab tili va arab adabiyoti ham kiradi, chunki ularsiz Shariat ilmlarini o'rganish mumkin emas deb hisoblanadi (yana Musulmon huquqi). Shariatning asosiy maqsadi insonlarning bu dunyoda va oxiratdagi saodatini ta'minlash va mashaqqatlarini yengillashtirishdan iborat. Insonlar taqvo qilishga buyurildilar, ammo uning ma'nosi bu dunyo go'zalliklaridan vos kechish emas, balki saodatga yetaklovchi islomiy me'yorlar doirasida dunyoning barcha go'zallik va qulayliklaridan foydalanishga ruxsat etilgandir. An'anaviy iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra yashash va tirikchilik vositalari xalqlar boyligi va iqtisodiy o'sish inson hayotining asosiy maqsadidir. Islom iqtisodiyotiga ko'ra yuqoridagilar zarur va hayotning ajralmas qismidir, ammo ular inson hayotining yagona va asl maqsadi emas; oxirat hayoti haqdir va bu omilni hisobga olish lozim. Alloh moddiy dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsaning mutlaq egasidir va o'z mulkini o'z xohishi va xikmati bilan tasarruf etadi. Faqat u odamlarga rizq va mulkini ato etadi va taqsimlaydi. Inson esa uning yerdagi vakilidir va bu dunyo va oxiratda saodatga erishish uchun uning buyruqlariga amal qilish lozim. Shariatning maqsadlari (maqosid ash-sharia') islom huquqining muhim mavzularidan biri bo'lib, shariatning birlamchi maqsadlari quyidagilarni himoya qilish va saqlab qolishdir:

1. <sup>1</sup> Dinshunoslik asoslari. Toshkent, 1995-yil 134-bet



1. Din
2. Hayot
3. Nasl
4. Aql
5. Mulk

Bularni saqlash insoniyatning saodati va yashab qolishi uchun eng muhim omillar bo'lib, ularga zarar yetishi kishilik jamiyatini izdan chiqarishi mumkin. Din va imon kuchli jamiyatning muhim bo'lagi hisoblanadi va shariat uni himoya qilishni talab etadi, ibodat amallari uchun zarur shart sharoitlarni yaratish lozim deb hisoblaydi. Inson hayotini himoya qilish Qur'on va Sunnatning ko'p o'rinlarida ta'kidlanadi, shariat inson hayotini daxlsiz deb e'lon qilgan, xususan suiqasd qilishni taqiqlaydi, bironi o'ldirganlik uchun qattiq jazo joriy qiladi. Insoniyatning davom etishini ta'minlash naslni saqlash uchun islom dini oila qurishni targ'ib etadi, rahm va farzandlar tarbiyasini muhim deb hisoblaydi. Aqlni saqlash ilm olish orqali va yomonni ajratish jamiyatning rivoji yo'lida xizmat qilishini bildiradi. Zero usiz saodat va adolatni jamiyat qurishning imkoni yo'qdir. Buning uchun shariat mast qiluvchi ichimliklar va boshqa zaharlovchi moddalarni iste'mol qilishni taqiqlaydi. Mulk va boyliklarni saqlash shariatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi insonlarning yaxshi yashashi va adolatli jamiyat qurishda ular naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Halol yo'l bilan mol mulk topish, boy va kambag'allar orasida katta tafovut paydo bo'lishi, boyliklarni bir qancha kishilar qo'lida to'planib qolishini oldini olishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shariatni diniy huquq kengroq tushuncha deb bilish kerak. Chunki shariat diniy huquqdan tashqari axloqiy vadiniy marosimchilik talablarining majmuini ham o'z ichiga oladi. Demak shariat faqatgina huquq va qonunchilikka xos masalalar bilan cheklanib qolmaydi. Shariat musulmonlarning huquqiy hayotidan tashqari ularning axloqiy va ko'p qirrali diniy hayotini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari diniy qonunlar darajasigacha ko'tarilgan dindorlarning shaxsiy va oilaviy hayoti hamda kundalik turmushiga oid mayda chuyda masalalarni ham o'z nazorati ostiga oladi.

Islom huquqshunosligi (fiqh) fanining asosiy predmetlaridan biri bu "shariat" tushunchasidir. «Shariat» so'zi arab tilida ikki ma'noda ishlatiladi: birinchisi, suvga olib boradigan yo'l ma'nosini anglatadi. Arab maqolida shu ma'noda "Suv ichishning yengil yo'li shariatga kirishdir", deyilgan; ikkinchisi, to'g'ri yo'l degan ma'noni bildiradi. Qur'oni karimning Josiya surasi 18-oyatida "So'ngra (ey Muhammad), Biz sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik"5



deyilganda shu ma'no nazarda tutilgan. Islom huquqida shariat deganda olimlar Qur'oni karim va Payg'ambar sunnatida kelgan ilohiy ko'rsatmalar (hukmlar)- ning majmuini tushunishadi. Ayrim tadqiqotchilar, xususan huquqshunoslar esa, shariat deganda islom qonunchiligining majmuini nazarda tutishadi. Birinchi guruh olimlariga ko'ra, shariat ilohiy norma (hukm) larning majmui hisoblanadi. Ilohiy normalar deganda esa, Qur'on va sunnada kelgan mafkuraviy (e'tiqodiy), axloqiy va huquqiy norma (hukm)lar umumiy holda nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, shariat tushunchasi mazmuniga ushbu normalarning qaysinisi kirishi va shariatning obyekt bo'lgan normalarni aniqlashtirish borasida olimlarda turlicha yondashuv mavjud. Bir guruh olimlarga ko'ra, shariat tushunchasi mazkur uch guruh normalarning barchasini qamrab olgan bo'lib, u keng ma'noda ishlatiladi. Ular bu fikrni Qur'oni karim va sunnada ushbu uch mavzuning barchasi aks etganligi bilan isbotlashadi. Boshqa olimlar esa, shariat deganda huquqiy (amaliy) normalargina ko'zda tutilishi lozim deb bilishadi. Buni esa, ular shariatning obyekt insonning amaliy xatti-harakatlari bo'lib, uning ongi va mafkurasi shariat obyektiga kirmasligi bilan izohlashgan.

Shariat musulmonlarning har kunlik hayoti va turmushiga diniy ong va his tuyg'uni olib kiruvchi vositadir. Masalan, shariatni o'zgarimas deydiganlar, Qur'on va sunna negizida aniqlangan normalardan iborat degan tezisni ko'zda tutishadi. Shu sababli ham ular bunga Qur'oni karimdagi "Allohning so'zlarida o'zgartirish yo'qdir" (Yunus, 64) oyatini asos qilib olishadi. Bunga qarshi o'laroq, shariatning o'zgariganligini isbotlashga harakat qiluvchilar esa, o'z qarashlarini Qur'on va sunnadagi huquqqa oid oyat va hadislarning soni kamligi va faqihlarning ijtihodlari o'zgarib turganligi bilan asoslashadi. Shariatning xususiyatlaridan biri bu uning islom dini mafkurasi (e'tiqodi) bilan bog'liqligidir. Madina shahar davlatining shakllanib, ummatni yagona g'oya atrofida jipslashtirib turishda islom mafkurasining o'rni katta bo'lgan. Islom tarixchilarining ta'kidlashlaricha, Makkada 13 yil mafkuraviy tarbiyalashdan so'ng Madinada huquqiy tartibga solish ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari shariat qoidalariga rioya etilishi mafkuraviy (e'tiqodiy) masala darajasida ham ko'riladi. Shariat normalariga bo'ysinmaslik va ularni buzish fosiqlik - 24 - deb ataladi. Hatto shariat normalarining tatbiq etilishi islom mafkurasi (e'tiqodi)ga ko'ra, insonning ikki yelkasidagi "kiroman kotibin" deb ataladigan farishtalar tomonidan qayd qilib boriladi. Bu bilan shariat normalarining tatbiq etilishi faqat muayyan tashkilotlar yoki ayrim shaxslar tomonidan emas, balki inson ko'ziga ko'rinmaydigan nazoratchi farishtalar tomonidan kuzatib turilishi singdiriladiki, bu bilan nazoratchini inson o'zidan tashqarisida emas, balki o'zida qidiradigan bo'ladi. Bundan tashqari Allahning sifatlari bayon qilinarkan, uning "ko'ruvchi (basir)" sifatiga imon keltirish haqidagi ta'limot bilan inson e'tiqodi darajasida shariat normalariga amal qilish



mustahkamlanadi. Bundan tashqari mafkuraviy (aqidaviy) ta'limotlar shariatga amal qilish lozimligini uqtirar ekan, uni imon bilan bog'lashga urinishgan. Jumladan, ash'ariylik va xorijiylik ta'limotlariga ko'ra, shariatga amal qilish imonning bir qismi hisoblanadi. Ammo amal qilmaslikning oqibati bo'yicha bu ta'limotlarning yondashuvi farqli. Shariatning boshqa bir xususiyati manbalarining ilohiyligidir. Bunda shariatning Qur'on va hadis normalaridan iborat degan qarash asosida yondashiladi. Shunga ko'ra, manba deganda faqat Qur'on va sunna nazarda tutiladi. Ma'lumki, Qur'on islom ta'limotiga ko'ra, Allohning kalomi bo'lganligi uchun unga ilohiylik xususiyati nisbat beriladi. Sunna ham payg'ambarga ilhom qilingan degan qarash asosida ilohiylik xususiyatga ega deyiladi.

Xulosa qilib aytish joizki, Shariat yoki islom huquqining xususiyatlari haqida gap ketar ekan shuni qayd etish lozimki, tadqiqotchilar shariat deganda ba'zilar Qur'on va sunna asosida belgilangan normalarni nazarda tutsa, boshqalari keyingi davr faqhlarning ta'limotlarini ham qo'shib tushunishadi. Shariat ilmlari islom dini va unga bog'liq bo'lgan masalalarni qamrab olgan. Bular tajvid (qiroat), tafsir, hadis, fiqh ilmlari, fiqhning far'iy (juz'iy) qismlari hamda kalom ilmlaridan iboratdir. Shariat ilmlari qatoriga arab tili va arab adabiyoti ham kiradi, chunki ularsiz Shariat ilmlarini o'rganish mumkin emas. Alloh moddiy dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsaning mutlaq egasidir va o'z mulkini o'z xohishi va xikmati bilan tasarruf etadi. Faqat u odamlarga rizq va mulkini ato etadi va taqsimlaydi. Inson esa uning yerdagi vakilidir, bu dunyo va oxiratda saodatga erishish uchun uning buyruqlariga amal qilish lozim. Xullas shariat musulmonlarning ichki hayoti, e'tiqodi va diniy vijdonini bevosita nazoratga nazoratga oluvchi diniy va axloqiy qoidalarni qamrab oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://wikipedia.org>
2. <https://islom.ziyouz.com>
3. <http://www.buxoriy.uz>-Toshkent islom instituti veb-sayti
4. Dinshunoslik asoslari. Toshkent, 1995-yil 134-bet
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.

